

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK 539.3

YAXSHILIKOV BEGZOD

IMPULSLI YUKLANISHLAR TA'SIRIDAGI HALQALAR BILAN
KUCHAYTIRILGAN DOIRAVIY PLASTINKANING KUCHLANGANLIK
–DEFORMASIYALANGANLIK HOLATINI TADQIQ QILISH

5A140302 – Deformatsiyalanuvchi qattiq jism mexanikasi

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
dots. Sh.Berdiyev

Samarqand – 2015

	MUNDARIJA	
	KIRISH	3
I-BOB.	HALQALAR BILAN KUCHAYTIRILGAN PLASTINKA DINAMIK HARAKATINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	
1.1-§.	Halqalar bilan kuchaytirilgan plastinkalar uchun fizik va geometrik chisiqlimas munosabatlar	10
1.2-§.	Impulslı yuklanishlar ta'siridagi halqali plastinkaning harakat differentsial tenglamalari	12
	1-bob bo'yicha xulosa	21
II-BOB	HALQALI PLASTINKANING HARAKAT TENGLAMALARINI SONLI YECHISH	
2.1-§.	Chekli ayirmalar usuli haqida asosiy tushunchalar	22
2.2-§.	Harakat tenglamalari va asosiy munosabatlar uchun sonli usul	37
2.3-§.	Masalani hisoblash algoritmi va dasturlar majmuasi	41
	II-bob bo'yicha xulosa	42
III-BOB	IMPULSLI YUKLANISHLAR TA'SIRIDAGI HALQALI DOIRAVIY PLASTINKANI HISOBLASHDAN OLINGAN NATIJALAR	
3.1-§.	Halqalar bilan kuchaytirilgan plastinkaning unga mahkamlangan halqalarning ko'ndalang kesimlari o'zgarishidan bog'liq kuchlangan-deformatsiyalangan holati	43
3.2-§.	Halqalar bilan kuchaytirilgan plastinkaning kuchlangan- deformatsiyalangan holatining unga mahkamlangan halqalar soni va joylashishidan bog'liq hollar	47
	III-bob bo'yicha xulosa	61
	XULOSA	62

	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	64
	ILOVA	66

KIRISH

Halqalar bilan kuchaytirilgan plastinka va qobiqlar dinamikasini o'rganishda mustahkamlangan halqalarni hisobga olish usuli bilan ajratiladigan ikkita asosiy yondashishdan foydalaniladi. Bulardan nisbatan ko'proq tarqalgan yondashish bu halqalangan halqali plastinka yoki qobiqni konstruktiv-ortotrop konstruksiya sifatida hisobga olish va ortotrop plastinka va qobiqlar nazariyasini bo'yicha o'rganishishgan iborat bo'ladi.

Bunday yondashish S.A.Ambarsumyan, A.S.Vol'mir, E.I.Grigorlyuk, A.P.Kolodyajniy, A.P.Kopmishin va boshqalar ishlarida foydalanilgan.

Konstruktiv-ortotropiyaning kiritilishi halqalar va qobiq o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatlaridan chetlashishga imkon beradi hamda masalani oddiylashtiradi. Ayni vaqtda bu yondashish yetarli darajada katta sondagi halqalar bo'lgan chog'da ham ahamiyatli xatolarga olib keladi.

Plastinka va qobiqqa mustahkamlangan halqalarini joylashishida diskretlikni hisobga olish ikkinchi xil yondashish bo'ladi va katta umumiylikni kasb etadi. Halqalarning diskret joylashishini hisobga olgan holdagi halqali plastinka va qobiqlar dinamikasi sohasidagi asosiy natijalar I.A.Amiro, V.A.Zarutskiy, V.G.Palamarchuk, Y.P.Jigalko, I.V.Adrianov va boshqalar ishlarida o'z aksini topgan. Shaxsan plastinka yoki qobiq va u bilan kontakt chizigi bo'yicha birlashtirilgan halqalardan tuzilgan sistema, mana shu yondashishlarga asosan ko'riladi.

Plastinka va qobiqning kuchlangan-deformasiyalangan holati Kirgof-Lyav yoki Timoshenko gipotezalarida yupqa qobiqlar nazariyasi asosida qabul qilinadi, halqalarni hisoblash uchun esa Kirxgof-Klebsha gipotezasiga asoslangan egri chiziqli sterjenlar nazariyasi foydalanilishi mumkin, yoki shuningdek normal elementning siljish deformatsiyasi va aylanish inersiyasini hisobga olgan holda halqalarning plastinka bilan tutashtirish holati Dirakning del'ta funksiyasi yordamida keltirib chiqariladi. Halqali plastinka va qobiqlar nazariyasining

kompakt-diffetensial tenglamalarini olishga imkon bergan tutashtirish holatining integral ko'ri nishi I.A.Amirov va V.A.Zarutskiylarning ishlarida taklif etilgan.

Halqali konstruksiyaning zinasimon-o'zgaruvchan qalinlikdagi plastinka qobiqlar sifatidagi ko'rinishi bilan bog'liq yana bir uchinchi yondashish ham bor. Bunday yondashish mustahkamlanayotgan halqalarning enini hisoblashga imkon beradi va enli halqalar qo'yilgandagi qobiqlarning kuchlanganlik-deformasiyalanganlik holatini to'laqonli aniqlaydi. Halqalarning joylashgan joyini va ularning enini belgilash uchun yagona ustunsimon funksiyalar qo'llaniladi. Bu funksiyalar birlik funksiyalarning ular argumentining halqa eniga teng o'zgarishdagi halqa orttirmasiga teng. Birlik funksiyalar zinali-o'zgaruvchan qalinlikdagi plastinka va qobiqlar uchun hisoblash ishlarda qo'llanilgan. Birlik ustunli funktsiya qo'llanilishi plastinka yoki qobiqning halqalar soniga bog'lanmagan yechimli tenglamalar olishga imkon beradi.

Halqali plastinka va qobiqlar dinamikasi bo'yicha ishlar analizi shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarning aksariyat nazariy izlanishlar, halqalarni diskret joylashuvini hisobga olish usullari asosida bajarilgan. Halqali plastinkarning impul's yuklanish ostidagi kuchlangan-deformasiyalanlik holatini aniqlash usullari quyidagi [7, 9, 13] va boshqa ishlarda qarab chiqilgan. Bu ishlarning aksariyatida masalalar geometrik va fizik chiziqli bo'lgan holda yechilgan. Geometrik chiziqlimas qo'yish esa quyidagi [13] ishlarda foydalanilgan. Bir necha ishlardagina plastinkaning impul'sli yuklanishlar ta'siridagi plastic egiluvchanlik deformatsiyasi qarab chiqilgan.

Belgilash joizki, ancha ma'lum bo'lgan ishlarda asosan, bir yo'nalishda mustahkamlangan silindrik qobiqlar tadqiq qilingan. Xuddi shunday [11] silindrik qobiqlarning halqalar bilan kuchaytirilganligi kuzatiladi. Yon tomondan bo'ladigan zarba to'lqini ostidagi halqali qobirgalar bilan mustahkamlangan qo'sh qatlamli silindrik qobiqlarning deformatsiyanishi [11] ishda o'rganilgan. Pirovard natijada bitta qatlamning egilmasligi belgilanib, qobiqning halqali halqalar bilan mustahkamlanganligi natijasida maksimal deformatsiyanishning pasayganligi baholangan. [11, 13] ishlarda mustahkamlangan halqalar parametrining tashqi

dinamik bosim ostidagi silindrik qobiqning harakatiga bo'lgan tasiri sistematik tadqiqot qilinishi berilgan. Yechimga asos qilib [7] ishda berilgan yondashish olingan, ya'ni bunga ko'ra, qobiqning silliq qismlari uchun qurilgan yechimlar halqa joylashgan chiziqda yopishishadi, jipslashadi. [7, 11] ishlarda bo'ylama halqalar bilan kuchaytirilgan silindrik qobiqlarning tadqiqot natijalari berilgan. [13] ishda halqalar bilan mustahkamlangan sferik qobiqlar berilgan. Halqli qobiqlarning qisqa vaqtli yuklanishdagi dinamik holatini tadqiq qilishga Y. B. Nemirovskiy, A. E. Bogdanovich, T. B. Koshkina, A. K. Mishonkovalarning ishlari bag'ishlangan.

Ko'pchilik ishlarda dinamik jarayonni ta'riflash uchun plastinka va halqalar harakatining klassik tenglamalaridan foydalanilgan. T. Z. Lugovoy va V. F. Meyshalarning ishlarida stringer yoki shpangautlar bilan mustahkamlangan silindrik qobiqlarda to'lqinlarning tarqalish qonuniyatini tadqiq qilish haqidagi Timoshenko tipidagi nazariya qo'llanilgan. Xullas, yuqorida aytib o'tilgan ishlarning natijalarini, hamda bu yerda ko'rsatib o'tilmagan ko'pgina tadqiqotlarni tahlil qilib ko'rib, nostatsionar yuklanishlardagi kuchlanganlik deformasiyalanganlik holatini aniqlab ta'riflashdek vazifa yechimini topdi desak bo'ladi, bu asosan bir yo'nalishda halqalar bilan kuchaytirilgan silindrik qobiqlar uchun tadbiq etiladi.

Dissertatsiya ishining tadqiqot predmeti. Keyingi vaqtlarda fan va texnikaning rivojlanishi ko'pgina muhandislik konstruksiyalariga dinamik tasirlarini hisoblash metodlarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Bu sohada keyingi yillarda qilinayotgan ishlar plastinkalar va qobiqlarning turli fizik mexanik xususiyatlarini hisobga olingan nostatsionar holatlarini o'rganishga qaratilgan. Buning uchun qo'yilgan noxiziqli masalani echish usullari bilan tadqiqotlar o'tkazish mexanikaning murakkab masalalari jumlasiga kiradi. Shu maqsadda magistirlilik dissertatsiyasida shunga yaqin masalani yechilishi o'rganilib bir necha holatlar uchun tadqiqotlar o'tkazish ko'zda tutilgan.

Dissertatsiya ishining tadqiqot ob'ekti. Tomonlari qistirib mahkamlangan impulsli yuklanishlar ta'siridagi turli ko'ndalang kesimli halqalar bilan

kuchaytirilgan doiraviy plastinka kuchlanganlik deformasiyalanganlik holatlarini taqribiy usullardan chekli ayirmalar usuli yordamida o'rganish masalasi qo'yilgan. Halqa ko'ndalang kesimi to'g'ri to'rtburchak shaklda va plastinka ichki sirtiga mahkamlangan. Doiraviy plastinka tashqi sirtiga eksponensial qonun bo'yicha vaqtdan bog'liq o'zg'aruvchi impulsli yuklanish qo'yilgan bo'lsin. Plastinka va mahkamlanayotgan halqalar materiali bir xil deb qabul qilamiz. Plastinka deformatsiyalangan-kuchlangan holatini plastinkaga biriktirilgan halqalarning ko'ndalang kesimini yuzini o'zgartirmasdan ko'ndalang kesim eni va bo'yini o'zgarishidan bog'liq holini hamda halqalar soni va koordinatalarini o'zgartirilgan turli variantlarini tadqiq qilish masalalari qo'yildi.

Mavzuning dolzarbligi Texnika va xalq xo'jaligining ko'plab sohalarida, jumladan qurilish inshootlarida, aviasozlik, kemasozlik, yo'l qurilishlarida plastinka ko'rinishidagi yoki halqalar bilan kuchaytirilgan konstruksiyalar qo'llaniladi. Bu konstruksiyalarni deformasiyalanganlik kuchlanganlik holatlarini o'rganish, mustahkamligini oshirish, mustahkamligini saqlagan holda uning materialini tejash masalalari fan va texnikaning dolzarb masalalari hisoblanadi. Fan va texnikaning rivojlanishi ko'pgina injienerlik konstruksiyalariga dinamik tasirlarini hisoblash metodlarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Bu sohada keyingi yillarda qilinayotgan ishlar plastinka va qobiqlarning turli fizik mexanik xususiyatlarini hisobga olingan nostasionar holatlarini o'rganishga qaratilgan. Bu masalalar bilan ishlash dinamik jarayonlarni chuqur o'rganish, bu jarayonlarda qatnashayotgan muhandislik konstruksiyalari elementlarining, deformasiyalanganlik holatlarini etarli darajada aniqliqda o'rganish muhim ahamiyatga ega .

Ishning maqsad va vazifalari. Halqalar bilan kuchaytirilgan qobiqning impulsli yuklanishlar ta'siridagi nostasionar holatlari tadqiq etish biriktirilgan halqalar turlicha shaklda bo'lgan holat uchun va biriktirilgan halqalar soni va joylashish nuqtalarining turli variantlari uchun ko'chish, zo'riqish kuchlari va momentlar graviklarini tasvirlash yordamida konstruksiya deformatsiyalangan kuchlangan holatlari o'rganish maqsad qilib qoyildi.

Muammoning ishlab chiqilish darajasi. Halqali plastinkalar dinamikasini o'rganishda mustahkamlangan halqalarni hisobga olish usuli plastinkaga mustahkamlangan halqlarning joylashishida diskretlikni hisobga olish ikkinchi xil yondashish bo'ladi va katta umumiylikni kasb etadi.

Plastinka va qobiqlarning kuchlangan-deformasiyalangan holati Kirgof-Lyav yoki Timoshenko gipotezalari asosida qabul qilingan yupqa qobiqlar nazariyasi bo'yicha o'rganiladi.

Bu sohada qilingan ishlar va olingan natijalarni bir qanchasida chiziqli fizik masalalar qaralgan, halqalar bilan kuchaytirilgan plastinka va qobiqlarning nostasionar holatlarini o'rganish, va buning uchun qo'yilgan nochiziqli masalani echish usullari bilan tadqiqotlar o'tkazish mexanikaning murakkab masalalari jumlasiga kiradi. Hisoblashlarning maqsadi halqa bilan kuchaytirilgan plastinka harakati tenglamasini sonli integrallash aniqligi va barqarorligini asoslashdir. Halqali plastinka va qobiq dinamikasi masalasini sonli yechish aniqligi analitik tekshirish ko'pgina matematik qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liqdir. Amaliyotda masalani yechishni baholash uchun nisbatan oddiy usullar, masalan turli usullarda, turli sonli sxemalarda olingan natijalarni solishtirishga asoslangan usullardan yoki yaqinlashishlardan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv ishida qo'yilgan masalani yechishda zamonaviy hisob usullari va hisob algoritmligiga tayanilgan holda, halqalar bilan kuchaytirilgan plastinkaning nochiziqli tebranishlarini chekli ayirmalar usulidan foydalanib tahlil qilish, dinamik yuklanishlarning simmetrik deformasiyaga ta'sirini aniqlash, chegaraviy masalaga sonli hisob usulining qo'llanilganligidan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Hozirgi zamon texnikasi, qurilish, yer osti va yer usti inshootlari, aviatsiya, kemasozlik va boshqa juda ko'plab sohalarda ko'ndalang kesimi doiraviy bo'lgan muhandislik qurilmalarining asosiy elementlaridan biri sifatida ishlatiladi. Qo'llanilish jarayonida bunday qatlamlar intensiv va impulsiv dinamik yuklar ta'siri ostida bo'ladilar hamda juda ko'p

hollarda ularning dinamik chidamlilik darajasini tajribadan emas, balki hisoblashlar yordamida aniqlashga to'g'ri keladi.

Halqalar bilan kuchaytirilgan doiraviy plastinka ko'rinishidagi qurilmalar xalq xo'jaligida ko'p qo'llaniladi va ularni mustahkamligini oshirish va konstruksiyalarni defomasiyalanganlik kuchlanganlik holatlarini uning turli mexanik va fizik xossalarini hisobga olgan holda o'rganish, mustahkamligini soqlagan holda uning materialini tejash masalalari dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining tuzilishi. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib jami 72 betni tashkil qiladi.

Dissertatsiya asosiy bo'limlarining qisqacha mazmuni. Dissertatsiya ishining kirish qismida ishning predmeti va dolzarbligi tavsiflashga atroflicha to'xtalib o'tilgan. Ishning predmeti ishonarli dalillar asosida ko'rsatilgan va shu asosda uning ob'yekti aniqlashtirilgan.

Halaqalar bilan kuchaytirilgan doiraviy elastik plastinkaning kuchlanganlik holatini biriktirilgan halqalar soni va geometrik xarakteristikalarining o'zgarishidan bog'liq hollari klassik tenglamalar asosida tadqiq qilish zamonaviy mexanikaning o'ta dolzarb mavzularidan ekanligi isbotlangan. Dissertatsiya ishining maqsadi va bu maqsadni amalga oshirish uchun bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar belgilab olingan.

Dissertatsiya ishida hal qilinishi kerak bo'lgan muammo tahlil qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatlari aniq misollarda sodda qilib tushuntirib berilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi " Halqalar bilan kuchaytirilgan plastinka dinamik harakatini matematik modellashtirish" deb ataladi va o'z ichiga ikkita paragrafni olgan. Birinchi paragrafda halqalar bilan kuchaytirilgan plastinkalar uchun fizik va geometrik chisiqlimas munosabatlari o'rganilgan.

Ikkinchi paragrafdai impulsli yuklanishlar ta'siridagi halqali plastinkaning harakat differentsial tenglamalari keltirilgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi differentsial tenglamalarni yechishning chekli ayirmalar usuli, xususiyl hosilali differentsial tenglamalarni taqribiy yechish, doiraviyl elastik qobiqlarning buralma tebranishlarini klassik (ikkinchi tartibli) tenglamasi asosida sonli tatbiq etishga bag'ishlangan. Konstruksiya uchun o'rinli bo'lgan Timoshenko tipidagi harakat differentsial tenglamalarini yechishda sonli usullardan chekli ayirmalar usulidan foydalaniladi. Ishda bu usul haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Chekli ayirmalar usuli yordamida masalani yechish algoritmi kiritiladi. Umuman olganda bu bob aniq amaliyl masalalarni yechish uchun qo'llaniladigan sonli usullarni, xususan chekli ayirmalar usulini qoyilgan masala uchun qo'llashga bag'ishlangan.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi "Impulsli yuklanishlar ta'siridagi halqali doiraviyl plastinkani hisoblashdan olingan natijalar" deb nomlangan. Ushbu bobda plastinkaga ornatilgan halqalarning ko'dalang kesimini yuzini o'zgartirmasdan kesim eni va bo'yini o'zgarishi uch xil variantda qaralgan. Bu variantlarda plastinka nuqtalari ko'chishlari ichki so'riqish kuchlari va momentlari grafiklar yordamida taqqoslanadi. Shuningdek halqasiz plastinka, plastinkaga bitta halqa turli joylarda o'rnatilgan hollar uchun plastinka kuchlanganlik deformasiyalanganlik holatlari sonli tadqiq qilingan va olingan natijalar grafiklar ko'rinishida tasvirlanib xulasalar qilingan. Plastikaga ikkita halqa bilan mustahkamlangan holatda 3 ta variant, plastinka markaziga yaqin, markaz va chegara o'rtasida va halqalar chegaraga yaqin joylashgan variantlarda plastinka markaziy nuqtasi ko'chishlari va ichki zo'riqish kuchlarini aniqlashlandan olingan natijalarning grafiglarda tasvirlangan. Olingan natijalar asosida xulosalar chiqarilgan.

I-BOB. HALQALAR BILAN KUCHAYTIRILGAN PLASTINKA DINAMIK HARAKATINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

1.1-§. Halqalar bilan kuchaytirilgan plastinkalar uchun fizik va geometrik chisiqlimas munosabatlar

1. Umumlashgan funksiyalar haqida tushuncha. Umumlashgan funksiyalar Xevisayd funksiyasi, birlik funksiya Dirakning delta funksiyalari hisoblanadi.

Xevisayd funksiyasi quidagicha aniqlangan.

$$H(x-x_i)=\begin{cases} 0 & \text{agar } x < x_i \\ 1 & \text{agar } x \geq x_i \end{cases} \quad (1.1)$$

bu erda x_i tasir nuqtasi koordinatasi Xevisayd funksiyasi ko'paytmasi tasirni tasvirlaydi. Balka yoki plitaga q -kuch qo'yilgan bo'lsa, uning tasiri quyidagicha beriladi.

$$q(x,y)=q(y)H(x-x_i)$$

Delta funksiya bilan Xevisayd funksiyasini bog'liqligi quyidagicha

$$\delta(x-x_i)=\begin{cases} 0 & \text{agar } x \neq x_i \\ \infty & \text{agar } x = x_i \end{cases} \Rightarrow \int_{-\infty}^{\infty} f(x)\delta(x-x_i)dx = f(x)$$

Delta funksiya integrali qiymati chekli va birga teng

$$\int_{-\infty}^{\infty} \delta(x-x_i)dx = 1$$

Birluk funksiyaning hosilasi mavjud va u delta funksiya teng

$$H'_x(x-x_i)=\delta(x-x_i) \quad \text{bundan} \quad \int_0^x \delta(x-x_i)dx = H(x-x_i)$$

Har qanday uzluksiz funksiya ko'paytirilgan bu funksiya uni muayyan (x_i) nuqtada to'xtatib beradi.

$$f(x)\delta(x-x_i)=f(x_i)\delta(x-x_i)$$

demak $\int_0^x f(x)\delta(x-x_i)dx = f(x_i)dx = f(x_i)H(x-x_i)$ Xuddi shunday delta va

Xevisayd funksiyalarini ikkita, uchta va n ta argumentga bog'lik hollarini ifodalash mumkin

$\delta(x-x_i)\delta(y-y_i)=\delta(x-x_i;y-y_i)$ bitta o'zgargan holat uchun

$$\int_a^b \int_c^d \delta(x-x_i;y-y_i)dxdy=1 \quad a < x_i < b \quad c < y_i < d$$

Bu ikkala Dirak va Xevisayid funksiyalaridan foydalanib chiziqqa yoilgan kuch, to'plangan kuch va eguvchi moment tasirini ifodalasak bo'ladi.

$$q(x)=q^0(x)+q_1(x)[H(x-x_1)-H(x_2-x)+P\delta(x-x_2)+M\delta'(x-x_3)] \quad (1.2)$$

Bu erda $q^0(x)$ -balka uzunligida tekis taqsimlangan kuch $\delta'(x-x_3)$ -delta funksiya hosilasi. $q_1(x)-x_1 < x < x_2$ oraliqdagi kuch $P-x_i$ nuqtada to'plangan kuch. M-to'plangan eguvchi moment yoki juft kuch. x_3 nuqtaga qo'yilgan.

Bu uchala tasirni l uzunlikdagi proeksiyasi.

$$\begin{aligned} \int_0^\ell q(x)dx &= \int_0^\ell q^0(x)dx + \int_0^\ell q_1(x)[H(x-a_1)-H(b_1-x)]dx + \\ & \int_0^\ell P\delta(x-x_2)dx + \int_0^\ell M\delta'(x-x_2)dx = \int_0^\ell q^0 dx + \int_0^\ell q_1 dx + P \end{aligned}$$

Agar $q^0=const$ va $q_1=const$ desak

$$\int_0^\ell q(x)dx = q^0 \ell + (b_1 - a_1)q_1 + P \quad (1.3)$$

Bu formula balkadagi kuchlar yig'indisi. Xuddi shunday momentlar yig'indisi

$$\int_0^{\ell} q(x)x dx = \int_0^{\ell} q^0(x) dx + \int_{a_1}^b q_1(x) dx + \int_0^{\ell} P(x)\delta(x-x_2) dx + \int_0^{\ell} M\delta'(x-x_2)x dx =$$

$$= \frac{q^0 \ell^2}{2} + q_1 \left(\frac{b_1^2}{2} - \frac{a_1^2}{2} \right) + Pb_1 + M = q^0 \frac{\ell^2}{2} + q_1(b_1 - a_1) \frac{b_1 + a_1}{2} + Pb_1 + M \quad (1.4)$$

Bu erdagi integrallarni hisoblashda $\int_0^{\ell} M\delta'(x-x_3) dx$ va $\int_0^{\ell} M\delta'(x-x_3)x dx$ larga

$$\int_0^{\ell} f(x)\delta'(x-x_3) dx = \int_0^{\ell} f'(x)\delta(x-x_3) dx = -f'(x_3) \quad (1.5)$$

Kuchlar qo'yilishi rasmda tasvirlangan $x=x_\ell$ da $q=q(y)\delta(x-x_1)$ $x=x_2$ nuqtadagi

P kuch ta'siri $y=y_2$ $q(x,y)=P\delta(x-x_2)\delta(y-y_2)$ $x=x_3$ $y=y_3$ nuqtaga OX o'qi bo'yicha eguvchi moment tasviri $q(x,y)=M\delta'(x-x_3)\delta(y-y_3)$ OY yo'nalishida esa

$$q(x,y)=M\delta(x-x_3)\delta'(y-y_3)$$

Agar yuk chiziqda ixtiyoriy ko'rinishda taqsimlansa tenglama ko'rinishi $y=f(x)$ yoki


$$y-f(x)=0$$

kuch esa

$$q(x,y)=q\delta(y-f(x)).$$

2.Masalaning qo'yilishi.

Halqali bilan mustahkamlangan doiraviy plastinkani qaraymiz. Halqa ko'ndalang kesimi to'g'ri to'rtburchak shaklda va plastinka ichki sirtiga mahkamlangan. Plastinka tashqi sirtiga eksponensial qonun bo'yicha vaqtdan bog'liq o'zg'aruvchi impulsli P yuklanish qo'yilgan bo'lsin.



1.1. Rasm (a) halqalar bilan kuchaytirilgan plastinkaning umumiy ko'rinishi (b) o'rnatilgan halqaning ko'ndalang kesimi

Plastinka deformatsiyalangan-kuchlangan holatini o'rnatilgan halqalar sonidan va ularning ko'ndalang kesiminig o'zgarishidan bog'liq hollarini tadqiq qilamiz.

3. Masalaning matematik modeli

Qulaylik uchun plastinka holatini qutb koordinatalar sistemasida qaraymiz. Konstruksiyani plastinka tashkil qilgan qatlam va mustaxkamlangan halqalar qatlamidan iborat deb hisoblaymiz. Plastinka va halqa materiali bir xil va Guk qonuniga bo'ysunadi deb hisoblaymiz. Plastinka kuchlangan-deformatsiyalangan holatini Timoshenko tipidagi chiziqlimas yupqa plastinkalar nazariyasi bo'yicha ifodalaymiz. Plastinka ixtiyoriy nuqtasining plastinka o'rta sirti normal bo'yicha ko'chishlari z koordinatada

$$\begin{aligned}u^z &= u + z \psi \\w^z &= w\end{aligned}\tag{1.6}$$

ga teng va o'qqa nisbatan yuklanishni simmetrikligini hisobga olsak $v^z = v = 0$, bu erda u, v, w – plastinka o'rta sirti nuqtalarining koordinat o'qlari yo'nalishi bo'yicha ko'chishlari; ψ - plastinka o'rta sirti normalining burilish burchagi.

O'rta surt deformasiyasini ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi.

$$\begin{aligned}\varepsilon_1 &= \frac{\partial u}{\partial r} + \frac{1}{2} \left(\frac{\partial w}{\partial r} \right)^2; \\ \varepsilon_2 &= u / r;\end{aligned}\tag{1.7}$$

Plastinka qalinlida ixtiyoriy nuqtaning deformatsiyasi esa quyidagicha bo'ladi.

$$\begin{aligned}\varepsilon_1^z &= \varepsilon_1 + z \frac{\partial \psi}{\partial r}; \\ \varepsilon_2^z &= \varepsilon_2 + z \frac{\psi}{r}.\end{aligned}\tag{1.8}$$

Plastinka nuqtalarida kuchlanishlarni deformatsiyalar ifodasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{aligned}\sigma_1^0 &= \frac{E}{1-\mu^2} (\varepsilon_1^z + \mu \varepsilon_2^z); \\ \sigma_2^0 &= \frac{E}{1-\mu^2} (\varepsilon_2^z + \mu \varepsilon_1^z); \\ \sigma_{13}^0 &= \frac{E}{2(1+\mu)} \varepsilon_{13}^z,\end{aligned}\tag{1.9}$$

$$\text{bunda, } \varepsilon_{13}^z = f(z) \left(\frac{\partial w}{\partial r} + \psi \right);$$

Bu erda E, μ - plastinka materialining elastiklik moduli va Puasson koeffitsienti; $f(z)$ – funktsiya, σ_{13}^0 kuchlanishni plastinka qalinligi bo'yicha $f(z) = f_0(z)$ plastinka uchun $f(z) = f_1(z)$ esa halqa joylashgan nuqtalarda taqsimlanish qonunini bildiradi.

$$f_o(z) = 6[0,25 - \left(\frac{z}{h}\right)^2], \quad k^2 = 5/6;$$

$$f_1(z) = \frac{3h(h+2H)}{2(h+H)^2} \cdot \left(1 + 2 \frac{z}{h}\right) \left[1 - 2 \frac{z}{h(h+2H)}\right],$$

bu erda H – halqa balandligi.

Halqalar bilan kuchaytirilgan plastinka birlik kesimiga to'g'ri keladigan zo'riqish kuchlari, ko'ndalang kuchlar va momentlar ko'rinishi quyidagicha olinadi.

$$\begin{aligned} N_1 &= N_1^0 + N_1^R, & N_2 &= N_2^0 + N_2^R, \\ M_1 &= M_1^0 + M_1^R, & M_2 &= M_2^0 + M_2^R, & Q &= Q^0 + Q^R. \end{aligned}$$

Plastinka uchun zo'riqish kuchlari, ko'ndalang kuchlar va momentlar ko'rinishi quyidagicha aniqlanadi.

$$\begin{aligned} N_1^0 &= \int_{-h/2}^{h/2} \sigma_1^0 dz = \frac{Eh}{1-\mu^2} (\varepsilon_1 + \mu \varepsilon_2); \\ N_2^0 &= \int_{-h/2}^{h/2} \sigma_2^0 dz = \frac{Eh}{1-\mu^2} (\varepsilon_2 + \mu \varepsilon_1); \\ M_1^0 &= \int_{-h/2}^{h/2} \sigma_1^0 z dz = \frac{Eh^3}{12(1-\mu^2)} \left(\frac{\partial \psi}{\partial r} + \mu \frac{\psi}{r} \right); \\ M_2^0 &= \int_{-h/2}^{h/2} \sigma_2^0 z dz = \frac{Eh^3}{12(1-\mu^2)} \left(\frac{\psi}{r} + \mu \frac{\partial \psi}{\partial r} \right); \\ Q^0 &= \int_{-h/2}^{h/2} \sigma_{13}^0 dz = \frac{5}{6} \frac{Eh}{2(1+\mu)} \varepsilon_{13}; \end{aligned} \tag{1.10}$$

Halqa kesimiga zo'riqish kuchlari, momentlar va ko'ndalang kuchlar ta'siri butun konstruksiyada qalinligi pog'anali o'zgaruvchi plastinka kabi qaraladi. Halqa balandligi $H(r)$ birlik ustinsimon $\delta(r-r_i)$ funksiya orqali ifodalanadi:

$$H(r) = \sum_{i=1}^m h^i \delta(r-r_i).$$

Bu erda
$$\delta(r-r_i) = \begin{cases} 0, & r < a_i, \ r > b_i, \\ 1, & a_i < r < b_i, \end{cases}$$

$a_i = r_i - c_i/2$, $b_i = r_i + c_i/2$, i -chi halqa va plastinka tutatish nuqtasi ko'ordinatalari; $h^i(r)$, c_i – i -chi halqa balandligi va kengligi; m – halqalar soni.

Halqalar uchun kuchlanishlar quyidagi ko'rinishdagi formula orqali ifodalanadi

$$\begin{aligned}\sigma_2^R &= G_2(\varepsilon_2^z + \nu_2 \varepsilon_1^z); \\ \sigma_{13}^R &= G_{13} \varepsilon_{13}^z;\end{aligned}\tag{1.11}$$

$$G_1 = \frac{E_1}{1 - \nu_1 \nu_2}; \quad G_2 = \frac{E_2}{1 - \nu_1 \nu_2}; \quad G_{13} = \frac{5}{6} \frac{E}{2(1 + \nu)},$$

bu erda $E_1, E_2, \nu_1, \nu_2, G_{13}$ – plastinka materiali elastik o'zgarmaslari.

Halqa uchun uchun zo'riqish kuchlari, ko'ndalang kuchlar va momentlar ko'rinishi quyidagicha aniqlanadi.

$$\begin{aligned}N_1^R &= \int_{h/2}^{h/2+H} \sigma_1^R dz = A_{11}(\varepsilon_1 + \nu_2 \varepsilon_2) + B_{11} \left(\frac{\partial \psi}{\partial r} + \nu_2 \frac{\psi}{r} \right); \\ N_2^R &= \int_{h/2}^{h/2+H} \sigma_2^R dz = A_{22}(\varepsilon_2 + \nu_1 \varepsilon_1) + B_{22} \left(\frac{\psi}{r} + \nu_1 \frac{\partial \psi}{\partial r} \right); \\ M_1^R &= \int_{h/2}^{h/2+H} \sigma_1^R z dz = B_{11}(\varepsilon_1 + \nu_2 \varepsilon_2) + C_{11} \left(\frac{\partial \psi}{\partial r} + \nu_2 \frac{\psi}{r} \right); \\ M_2^R &= \int_{h/2}^{h/2+H} \sigma_2^R z dz = B_{22}(\varepsilon_2 + \nu_1 \varepsilon_1) + C_{22} \left(\frac{\psi}{r} + \nu_1 \frac{\partial \psi}{\partial r} \right); \\ Q^R &= \int_{h/2}^{h/2+H} \sigma_{13}^R dz = D_{13} \left(\frac{\partial w}{\partial r} + \psi \right).\end{aligned}\tag{1.12}$$

bu erda,

$$\begin{aligned}A_{11} &= G_1 F, & B_{11} &= G_1 S, & D_{13} &= G_{13} H(x, y); \\ A_{22} &= G_2 F, & B_{22} &= G_2 S, \\ C_{11} &= G_1 J, & C_{22} &= G_2 J, \\ F &= \sum_{i=1}^m F^i(r) \delta(r - r_i); & S &= \sum_{i=1}^m S^i(r) \delta(r - r_i); & J &= \sum_{i=1}^m J^i(r) \delta(r - r_i);\end{aligned}$$

$F^j(r), S^i(r), J^i(r)$ - mos ravishda i – chi halqa ko'ndalang kesim yuzasi, statik va inertsia momentlari.

1.2-§. Impulsli yuklanishlar ta'siridagi halqali plastinkaning harakat differentsial tenglamalari

Plastinka harakatini $[t_0, t_1]$.vaqt oralig'ida qaraymiz. Bu vaqt oralig'ida sistema nuqtalari harakat traektoriyasi quyidagi sjartlarni qanoatlantiradi.

$$\int_{t_0}^{t_1} \delta E \alpha t = \int_{t_0}^{t_1} (\delta K - \delta \Pi) dt = 0, \quad (1.13)$$

bu erda P - plastinka deformasiya potensial energiyasi va tashqi kuch potentsiali yug'indisi. K – sistema kinetik energiyasi.

Konstruksiyaning to'liq energiya variatsiyasi δP halqali plastinka ehergiyasi variatsiyasi δE va tashqi kuch potentsiali variatsiyasi δA ga teng.

$$\delta \Pi = \delta E + \delta A. \quad (1.14)$$

Tashqi kuch potentsiali variatsiyasi δA quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$\delta A = \int_0^a \int_0^b q(x, y, t) \delta w dx dy \quad (0 \leq x \leq a, 0 \leq y \leq b).$$

Halqalar bilan kuchaytirilgan plastinka deformasiyasi potensial energiyasi variatsiyasi quyidagi ko'rinishda aniqlandi.

$$\begin{aligned} \delta \mathcal{O} = & \int_0^a \int_0^b \int_{\sum H} \left[\sigma_x \delta \epsilon_x^z + \sigma_y \delta \epsilon_y^z + \sigma_{xy} \delta \epsilon_{xy}^z + \sigma_{xz} \delta \left(\frac{\partial w}{\partial x} + \Psi_x \right) + \right. \\ & \left. + \sigma_{yz} \delta \left(\frac{\partial w}{\partial y} + \Psi_y \right) \right] dx dy dz = \int_0^a \int_0^b \left[N_x \delta \epsilon_x + N_y \delta \epsilon_y + N_{xy} \delta \epsilon_{xy} + \right. \\ & + M_x \delta \frac{\partial \Psi_x}{\partial x} + M_y \delta \frac{\partial \Psi_y}{\partial y} + M_{xy} \delta \left(\frac{\partial \Psi_x}{\partial y} + \frac{\partial \Psi_y}{\partial x} \right) + \\ & \left. + Q_x \delta \left(\frac{\partial w}{\partial x} + \Psi_x \right) + Q_y \delta \left(\frac{\partial w}{\partial y} + \Psi_y \right) \right] dx dy, \end{aligned} \quad (1.15)$$

bu erda $\sum H$ - konsntuksiya qalinlari yig'indisi. Bir necha soddalashtirishlardan keyin (1.14) uchun quidagilarni olish mumkin .

$$\begin{aligned}
\delta\Pi = & \int_0^a \int_0^b \left[N_x \delta \frac{\partial u}{\partial x} + N_{xy} \delta \frac{\partial u}{\partial y} + N_y \delta \frac{\partial v}{\partial y} + N_{xy} \delta \frac{\partial v}{\partial x} + \right. \\
& + N_x \left(\frac{\partial w}{\partial x} \delta \frac{\partial w}{\partial x} \right) + N_y \left(\frac{\partial w}{\partial y} \delta \frac{\partial w}{\partial y} \right) + \\
& + N_{xy} \left(\delta W + \frac{\partial w}{\partial x} \delta \frac{\partial w}{\partial y} + \frac{\partial w}{\partial y} \delta \frac{\partial w}{\partial x} \right) + Q_x \delta \frac{\partial w}{\partial x} + Q_y \delta \frac{\partial w}{\partial y} + \\
& + M_x \delta \frac{\partial \psi_x}{\partial x} + M_y \delta \frac{\partial \psi_y}{\partial y} + M_{xy} \delta \frac{\partial \psi_x}{\partial y} + M_{xy} \delta \frac{\partial \psi_y}{\partial x} + \\
& \left. + Q_x \delta \psi_x + Q_y \delta \psi_y - q \delta W \right] dx dy.
\end{aligned}$$

K kinenik energiya esa quyidagicha kurinishda bo'ladi,

$$\begin{aligned}
K = & \frac{1}{2} \cdot \frac{\nu}{g} \int_{\Sigma H} \int_0^a \int_0^a \left\{ \left(\frac{\partial u}{\partial t} \right)^2 + \left(\frac{\partial v}{\partial t} \right)^2 + \left(\frac{\partial w}{\partial t} \right)^2 + 2z \left(\frac{\partial u}{\partial t} \frac{\partial \psi_x}{\partial t} \frac{\partial v}{\partial t} \frac{\partial \psi_y}{\partial t} \right) + \right. \\
& \left. + z^2 \left[\left(\frac{\partial \psi_x}{\partial t} \right)^2 + \left(\frac{\partial \psi_y}{\partial t} \right)^2 \right] \right\} dx dy dz.
\end{aligned} \tag{1.16}$$

Bu erda γ , g –materialning solishtirma og'rliklari. Agar bu ifodani halqalar joylashishidan bog'liq z bo'yicha qalinlik o'zgarishini hisobga olib integrallasak,

$$\begin{aligned}
K = & \frac{1}{2} \cdot \frac{\nu h}{g} \int_0^a \int_0^b \left\{ \left(\frac{\partial u}{\partial t} \right)^2 + \left(\frac{\partial v}{\partial t} \right)^2 + \left(\frac{\partial w}{\partial t} \right)^2 + \frac{h^2}{12} \times \right. \\
& + \frac{1}{2} \cdot \frac{\nu}{g} \int_0^a \int_0^a \left\{ \left[\left(\frac{\partial u}{\partial t} \right)^2 + \left(\frac{\partial v}{\partial t} \right)^2 + \left(\frac{\partial w}{\partial t} \right)^2 \right] \bar{F} + \right. \\
& \left. + 2 \left(\frac{\partial u}{\partial t} \frac{\partial \psi_x}{\partial t} \frac{\partial v}{\partial t} \frac{\partial \psi_y}{\partial t} \right) \bar{S} + \left[\left(\frac{\partial \psi_x}{\partial t} \right)^2 + \left(\frac{\partial \psi_y}{\partial t} \right)^2 \right] \bar{J} \right\} dx dy.
\end{aligned} \tag{1.17}$$

bu erda $\bar{F}, \bar{S}, \bar{J}$ - halqa ko'ndalang kesim yuzasi, statik va inersiya momentlari.

δK va δP ifodalarni yuqoridagilarni hisobga olib, uch karrali integral orqali quyidagi variatsion tenglama ko'rinishida yozish mumkin.

$$\begin{aligned}
& - \int_{t_0}^{t_1} \int_0^a \int_0^b \left\{ \left[\frac{\partial N_x}{\partial x} + \frac{\partial N_{xy}}{\partial y} - \frac{v}{g} \frac{\partial^2 V}{\partial t^2} (h + \bar{F}) - \frac{v}{g} \frac{\partial^2 \psi_x}{\partial t^2} \bar{S} \right] \delta u + \right. \\
& + \left[\frac{\partial N_y}{\partial y} + \frac{\partial N_{xy}}{\partial x} - \frac{v}{g} \frac{\partial^2 v}{\partial t^2} (h + \bar{F}) - \frac{v}{g} \frac{\partial^2 \psi_y}{\partial t^2} \bar{S} \right] \delta v + \\
& + \left[\frac{\partial}{\partial x} \left(N_x \frac{\partial w}{\partial x} + N_{xy} \frac{\partial w}{\partial y} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \times \right. \\
& \times \left(N_y \frac{\partial w}{\partial y} + N_{xy} \frac{\partial w}{\partial x} \right) + \frac{\partial Q_x}{\partial x} + \frac{\partial Q_y}{\partial y} + q - \frac{v}{g} \frac{\partial^2 w}{\partial t^2} (h + F) \left. \right] \delta w + \\
& + \left[\frac{\partial M_x}{\partial x} + \frac{\partial M_{xy}}{\partial y} - Q_x - \frac{v}{g} \frac{\partial^2 \psi_x}{\partial t^2} \left(\frac{h^3}{12} + J \right) - \frac{v}{g} \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} \bar{S} \right] \delta \psi_x + \\
& + \left[\frac{\partial M_y}{\partial y} + \frac{\partial M_{xy}}{\partial x} - Q_y - \frac{v}{g} \frac{\partial^2 \psi_y}{\partial t^2} \left(\frac{h^3}{12} + J \right) - \frac{v}{g} \frac{\partial^2 v}{\partial t^2} \bar{S} \right] \delta \psi_y \left. \right\} dx dy dz - \\
& - \frac{v}{g} \int_0^a \int_0^b \left\{ \left[\frac{\partial u}{\partial t} (h + F) + \frac{\partial \psi_x}{\partial t} \bar{S} \right] \delta u + \left[\frac{\partial V}{\partial t} (h + F) + \frac{\partial \psi_y}{\partial t} \bar{S} \right] \times \right. \\
& \times dv + \frac{\partial w}{\partial t} (h + F) \delta w + \left[\frac{\partial \psi_x}{\partial t} \left(\frac{h^3}{12} + J \right) + \frac{\partial u}{\partial t} \bar{S} \right] \delta \psi_x + \\
& + \left[\frac{\partial \psi_y}{\partial t} \left(\frac{h^3}{12} + J \right) + \frac{\partial v}{\partial t} \bar{S} \right] \delta \psi_y \left. \right\} \Big|_{t_0}^{t_1} dx dy + \\
& + \int_{t_0}^{t_1} \int_0^b \left\{ \left[N_x \delta u + N_{xy} \delta v \left(N_x \frac{\partial W}{\partial x} + N_{xy} \frac{\partial W}{\partial y} + Q_x \right) \times \right. \right. \\
& \times \delta w + M_x \delta \psi_x + M_{xy} \delta \psi_y \left. \right] \Big|_{x=0}^{x=a} \left. \right\} dy dt + \\
& + \int_{t_0}^{t_1} \int_0^a \left\{ \left[N_{xy} \delta u + N_y \delta v \left(N_y \frac{\partial w}{\partial y} + N_{xy} \frac{\partial w}{\partial x} + Q_y \right) \times \right. \right. \\
& \times \delta w + M_{xy} \delta \psi_x + M_y \delta \psi_y \left. \right] \Big|_{y=0}^{y=b} \left. \right\} dx dt = 0.
\end{aligned} \tag{1.18}$$

Bundan quyidagi harakat differensial tenglamalarini olishimiz mumkin bo'ladi.

$$\begin{aligned}
& \frac{\partial N_x}{\partial x} + \frac{\partial N_y}{\partial y} - \frac{v}{g} \left[\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} (h + \bar{F}) + \frac{\partial^2 \psi_x}{\partial t^2} \bar{S} \right] = 0; \\
& \frac{\partial N_y}{\partial y} + \frac{\partial N_{xy}}{\partial x} - \frac{v}{g} \left[\frac{\partial^2 v}{\partial t^2} (h + \bar{F}) + \frac{\partial^2 \psi_y}{\partial t^2} \bar{S} \right] = 0; \\
& \frac{\partial}{\partial x} \left(N_x \frac{\partial w}{\partial x} + N_{xy} \frac{\partial w}{\partial y} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(N_y \frac{\partial w}{\partial y} + N_{xy} \frac{\partial w}{\partial x} \right) + \\
& + \frac{\partial Q_x}{\partial x} + \frac{\partial Q_y}{\partial y} + q - \frac{v}{g} \frac{\partial^2 w}{\partial t^2} (h + F) = 0; \\
& \frac{\partial M_x}{\partial x} + \frac{\partial M_{xy}}{\partial y} - Q_x - \frac{v}{g} \left[\frac{\partial^2 \psi_x}{\partial t^2} \left(\frac{h^3}{12} + J \right) + \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} \bar{S} \right] = 0; \\
& \frac{\partial M_y}{\partial y} + \frac{\partial M_{xy}}{\partial x} - Q_y - \frac{v}{g} \left[\frac{\partial^2 \psi_y}{\partial t^2} \left(\frac{h^3}{12} + J \right) + \frac{\partial^2 v}{\partial t^2} \bar{S} \right] = 0.
\end{aligned} \tag{1.19}$$

(1.19) variatsion tenglamalar uchun quyidagi chegaraviy va boshang'ich shartlarni olamiz.

Qulaylik uchun (1.19) plastinka harakat tenglamalarini qutb koordinatalar sistemasida qaraymiz. Masalani o'qqa nisbatan simmetrikligini hisobga olib plastinka harakat tenglamasini quyidagi ko'rinishda olamiz:

$$\begin{aligned}
& (N_1 r)' - N_2 = r \rho \left[\ddot{u} (h + F) + \ddot{\psi} S \right]; \\
& (rQ)' + (N_1 r w)' = r \rho \ddot{w} (h + F) - rP; \\
& (rM_1)' - M_2 - rQ = r \rho \left[\ddot{\psi} (h^3 / 12 + J) + \ddot{u} S \right],
\end{aligned} \tag{1.20}$$

bu erda ρ - plastinka materiali zichligi; h - plastinka qalinligi; R - plastinka radiusi.

Konstruksiya uchun chegaraviy sartlar quyidagicha ifodalanadi

a) Plastinka tamonlari qistirib maxkamlanganlik sharti

$$u = w = \psi = 0;$$

b) plastinka markaziga nisbatan simmetriklik sharti:

$$u = \frac{\partial w}{\partial r} = \psi = 0 \quad \text{bunda } r = 0$$

Boshlang'ich shartlar $t = 0$ da plastinka holati nolga teng deb harakterlanadi:

$$u = w = 0 .$$

Shunday qilib, halqali plastinkalar dinamik deformatsiasi haqidagi masalaning to'liq matematik qo'yilishi berilgan chegaraviy va boshlang'ich shartlarda (1.7)-(1.12) va (1.20) tenglamalar sistemasining birgalikdagi yechimidan iborat.

I-bob bo'yicha xulosa

Dissertatsiya ishining birinchi bobi “ Halqalar bilan kuchaytirilgan plastinka dinamik harakatini matematik modellashtirish” deb ataladi va o'z ichiga ikkita paragrafni olgan. Birinchi paragrafda halqalar bilan kuchaytirilgan plastinkalar uchun fizik va geometrik chisiqlimas munosabatlari o'rganilgan hamda impulsli yuklanishlar ta'siridagi halqali plastinkaning harakat differentsial tenglamalari keltirilgan.

II.BOB. HALQALI PLASTINKANING HARAKAT TENGLAMALARINI SONLI YECHISH

2.1-§. Chekli ayirmalar usuli haqida asosiy tushunchalar

Plastinkalar va qobiqlar nazariyasining qator masalalari berilgan chegaraviy shartli xususiy xosilali differensial tenglamalarga keltiriladi. Bu tenglamalar oddiy masalalar hamda chegaralar va tashqi yuklarning oddiy shakllaridagina aniq yechiladilar. Ko'p hollarda aniq yechimlarni topish qiyin bo'ladi shuning uchun sonli usullarga murojaat qilinadi. Xususan shunday sonli usullardan biri differensial tenglamalarni tegishli chekli ayirmalar qatnashgan ayirmalar qatnashgan tenglamalar bilan almashtirishdan iboratdir.

Chekli ayirmalar metodining imkoniyati EHM paydo bo'lishi bilan oshib ketdi. Plastinkalar va qobiqlar nazariyasi masalalarini chekli ayirmalar usuli yordamida yechishga doir ilmiy ishlar keskin ko'paydi.

Xususiy xosilali differensial tenglamalarni taqribiy yechishda turlar yoki chekli ayirmalar metodining asosiy g'oyasi quyidagilardan iborat:

- yechim qidirilayotgan G soha turli G_λ soha bilan almashtiriladi;
- berilgan differensial tenglama sohaning ichki nuqtalarida tegishli chekli ayirmalar qatnashgan tenglamalar bilan almashtiriladi;
- chegaraviy shartlar asosida qidirilayotgan yechimning qiymatlari G_λ soha tugunlarida topiladi.

Bunday almashtirish natijasida ko'p noma'lum algebraik tenglamalar sistemasiga kelimiz, bunda noma'lumlar soni tenglamalar soni va tugunlar soni ko'paytmasiga teng bo'ladi. Bu sistemani yechib izlanayotgan funksiyaning nuqtalardagi sonli qiymatlarini hosil qilamiz. Funksiyaning boshqa nuqtalaridagi qiymatlari interpoliyasion formulalardan topiladi.

To'rtli G_λ sohani tanlash har bir aniq masalaga qarab amalga oshiriladi, biroq hamma vaqt G_λ kontur G ni yaxshiroq approksimatsiya qilishga intiladi.

To'rtli soha kvadrat, to'rtburchak, uchburchak, oltiburchak va boshqa elementlardan iborat bo'lishi mumkin.

Alohida elementning o'lchamlaridan R_n qoldiq hadning qiymatlari bog'liq bo'ladi. Ya'ni o'lchamlar qancha kichik olinsa R_n qoldiq had shuncha kichik bo'ladi. Ammo tugunlar soni ortib ketishi natijasida tenglamalar soni ko'payadi va uni EHM da yechish amalda mumkin bo'lmay qoladi.

Ma'lumki $y = f(x)$ funksiuani x_0 nuqtadagi hosilasi quyidagicha topiladi:

$$y'_\lambda(x_0) = \lim_{\lambda \rightarrow 0} \frac{f(x_0 + \lambda) - f(x_0)}{\lambda}, \text{ yoki } y'_\lambda(x_0) = \lim_{\lambda \rightarrow 0} \frac{f(x_0) - f(x_0 - \lambda)}{\lambda}$$

Bu yerda λ - argumentning chekli orttirmasi. $\lambda > 0$ bo'lganda birinchi formulaga o'ng hosila, ikkinchi formulaga esa chap hosila deyiladi.

Yuqorida berilgan formulada limit simvolini tushurib qoldirsak o'ng va chap hosilalar uchun ushbu taqribalar formulalarni olamiz.

$$y'_\lambda(x_0) = \frac{f(x_0 + \lambda) - f(x_0)}{\lambda}, \text{ yoki } y'_\lambda(x_0) = \frac{f(x_0) - f(x_0 - \lambda)}{\lambda} \quad (2.1)$$

Amalda x_0 nuqtada markaziy ayirmalardan ham foydalanadi

$$y'_\lambda(x_0) = \frac{f(x_0 + \lambda) - f(x_0 - \lambda)}{2\lambda}, \quad (2.2)$$

Ikkinchi tartibli chekli ayirma xosila uchun

$$y''_\lambda(x_0) = \frac{f(x_0 + \lambda) - 2f(x_0) + f(x_0 - \lambda)}{\lambda^2}, \quad (2.3)$$

formuladan foydalanish qulay. Yuqoridagi (2.2) va (2.3) ifodalar asosida yuqori tartibli chekli ayirmali xosilalar uchun formulani keltirish mumkin

$$y'''_\lambda(x_0) = \frac{d}{dx} [y''_\lambda(x_0)] = \frac{f(x_0 + 2\lambda) - 2f(x_0 + \lambda) + 2f(x_0 - \lambda) - f(x_0 - 2\lambda)}{2\lambda^3},$$


Hosilalarning almashtirishning bu usuli uning aniqligini baholashga imkon bermaydi.

Funksiya hosilalarining uning diskret nuqtalaridagi qiymatlari orqali almashtirib approssimatsiya xatosining bahosini ham beruvchi turli usullar mavjud. Quyida Teylor formulalariga asoslanuvchi usuldan foydalanamiz.

**O`ng chekli ayirmali hosila.** Teng uzoqlikda joylashgan  $x_i = x_0 + i\lambda$  nuqtalar uchun  $y_i = f(x_i) = f(x_0 + i\lambda)$ ,  $(i = 0, 1, 2, 3, \dots, n)$  qiymatlari ma'lum bo'lsin. bunda  $\lambda$  -x o`qi bo'yicha qadam (1-rasm)

$$\Delta y_i = y_{i+1} - y_i, \quad (i = 0, 1, 2, \dots, n); \quad (2.4)$$

kattalikka $f(x)$ funksiyaning x_i nuqtadagi o`ng ayirmasi deyiladi.



2.1-rasm

Ikkinchi o`ng ayirma esa birinchi ayirmadan olingan ayirma hisoblanadi.

$$\Delta^2 y_i = \Delta(\Delta y_i) = \Delta(y_{i+1} - y_i) = (y_{i+2} - y_{i+1}) - (y_{i+1} - y_i) = y_{i+2} - 2y_{i+1} + y_i;$$

Xuddi shu yo`l bilan yuqori tartibli ayirmalarni ham topish mumkin. Shunday qilib  $x_i$  nuqtada  $m$ -o`ng ayirmani topish uchun ushbu formuladan foydalanamiz.

$$\Delta^m y_i = \Delta^{m-1}(y_{i+1} - y_i) = \dots = \sum_{j=0}^m (-1)^j C_m^j y_{i+m-j} \quad (2.5)$$

Bu yerda Δ - simvol chiziqli operator ekanligini qayd etamiz. x_i nuqtada Δ ayirmali operator va $\frac{d}{dx} = D$ differensial operator orasidagi bog`lanishni aniqlaymiz. Buning uchun $f(x)$ va $e^{\alpha x}$ funksiyalarni Teylor qatoriga yoyiladi

$$\begin{aligned} f(x + \Delta x) &= f(x) + \frac{f'(x)}{1!} \Delta x + \frac{f''(x)}{2!} \Delta x^2 + \dots; \\ e^{\alpha x} &= 1 + \frac{\alpha x}{1!} + \frac{\alpha^2 x^2}{2!} + \dots; \end{aligned} \quad (2.6)$$

Ushbu belgilashlarni olamiz $\Delta x = \lambda$, $x = x_i$, $f^n(x_i) = D^n f(x_i)$, u holda

$$y_{i+1} = f(x_i + \lambda) = f(x_i) + \frac{\lambda}{1!} Df(x_i) + \frac{\lambda^2}{2!} D^2 f(x_i) + \dots = \left(1 + \frac{\lambda}{1!} D + \frac{\lambda^2}{2!} D^2 + \dots \right) f(x_i)$$

Hosil qilingan bu ifodaga (2.6) formulani ikkinchisini qo'llab quyidagicha yozish mumkin

$$y_{i+1} = e^{\lambda D} y_i; \quad (2.7)$$

(2.7) ni (2.4) ga qo'yib quyidagini olamiz

$$\Delta y_i = y_{i+1} - y_i = e^{\lambda D} y_i - y_i = (e^{\lambda D} - 1) y_i$$

Bu yerdan Δ, D operatorlar orasidagi quyidagi bog'lanishga ega bo'lamiz.

$$\Delta = (e^{\lambda D} - 1) \quad (2.8)$$

yoki

$$\lambda D = \ln(1 + \Delta) \quad (2.9)$$

(2.9) ni n-darajaga ko'tarib n-tartibga hosila operatori orasida bog'lanishni topamiz.

$$(\lambda D)^n = \ln^n(1 + \Delta) \quad (2.10)$$

(2.9), (2.10) formulalarni amalda tadbqiq etish uchun $\ln(1 + \Delta)$ bo'yicha ni Δ bo'yicha qatorga yoyamiz.

$$\ln(1 + \Delta) = \Delta - \frac{\Delta^2}{2} + \frac{\Delta^3}{3} - \dots$$

Shunday qilib

$$D^n = \frac{1}{\lambda^n} \left[\Delta - \frac{\Delta^2}{2} + \frac{\Delta^3}{3} - \dots \right], \quad (n=1,2,3,\dots) \quad (2.11)$$

Bu formula yordamida $f(x)$ funksiyaning x_i nuqtadagi xosilasi ixtiyoriy aniqlikda o'ng ayirmalar orqali ifodalash mumkin.

Agar funksiya bo'lakli uzluksiz bo'lsa (2.11) ning bitta hadini qoldirib R_n qoldiq hadli o'ng hosilani olamiz. U λ kabi nolga intiladi. Agar $f(x)$ funksiya bo'laklar uzluksiz bo'lsa, qatorda ikki hadni qoldirib λ^2 kabi nolga intiluvchi R_n qoldiq hadli o'ng ayirmali hosilani olamiz.

Chap ayirmali hosilalar. $y = f(x)$ funksiyaning x_i nuqtadagi birinchi chap ayirmasi yoki chap ayirmasi deb ushbuga aytamiz.

$$\nabla y_i = y_i - y_{i-1}, \quad (i=0,1,2,\dots,n); \quad (2.12)$$

yuqori tartibli ayirmalar

$$\nabla^2 y_i = \nabla(\nabla y_i) = \nabla(y_i - y_{i-1}) = (y_i - y_{i-1}) - (y_{i-1} - y_{i-2}) = y_i - 2y_{i-1} + y_{i-2};$$

$$\nabla^m y_i = \nabla^{m-1}(\nabla y_i) = \nabla^{m-1}(y_i - y_{i-1}) = \dots = \sum_{j=0}^m (-1)^j C_m^j y_{i-m+j}; \quad (2.13)$$

Yuqoridagi (2.6) yoyilmani $\Delta x = -\lambda$, $x = x_i$, $f^n(x_i) = D^n f(x_i)$, lar uchun ishlatsak:

$$y_{i-1} = f(x_{i-1}) = e^{-\lambda D} y_i; \quad (2.14)$$

hosil qilingan (2.14) ni (2.12) ga qo'ysak

$$\nabla y_i = y_i - y_{i-1} = y_i - y_i e^{-\lambda D} = (1 - e^{-\lambda D}) y_i$$

U holda ∇ va D operatorlari orasida bog'lanish topiladi:

$$\nabla = 1 - e^{-\lambda D} \text{ yoki } \lambda D = -\ln(1 - \nabla); \quad (2.15)$$

$\ln(1 - \nabla)$ ni ∇ ning darajalari bo'yicha qatorga yoyib, hosila operatorini chap ayirmalar operatori orqali ifodalaymiz:

$$\lambda D = \nabla + \frac{\nabla^2}{2} + \frac{\nabla^3}{3} + \dots \quad (2.16)$$

n -tartibli chap ayirmali hosilalarni chap ayirmalar orqali (2.15) ni m -darajaga ko'tartish yo'li bilan hosil qilamiz:

$$(\lambda D)^m = [-\ln(1 - \nabla)]^m = \left[\nabla + \frac{\nabla^2}{2} + \frac{\nabla^3}{3} + \dots \right]^m, m = 1, 2, 3, \dots \quad (2.17)$$


Masalan aniqlikda quyidagicha yozamiz.

Bu yerda $\nabla^m y_i$ ayirma λ^m tartibga egaligini ta'kidlaymiz. Δ va ∇ operatorlar orasida ushbu bog'lanish mavjud

$$1 + \Delta = (1 - \nabla)^{-1}. \quad (2.18)$$

Markaziy ayirmali hosilalar. $y = f(x)$ funksiyaning x_i nuqtadagi birinchi markaziy ayirmasi yoki markaziy ayirmasi deb ushbu ifodagi aytiladi

$$\delta y_i = f\left(x_i + \frac{\lambda}{2}\right) - f\left(x_i - \frac{\lambda}{2}\right) = y_{i+\frac{1}{2}} - y_{i-\frac{1}{2}} \quad (2.19)$$



2.2-rasm

Yuqoridagi kabi yuqori tartibli ayirmalarni ham kiritish mumkin.

Masalan

$$\delta^2 y_i = \delta(\delta y_i) = \delta \left(y_{i+\frac{1}{2}} - y_{i-\frac{1}{2}} \right) = (y_{i+1} - y_i) - (y_i - y_{i-1}) = y_{i+1} - 2y_i + y_{i-1}, \quad (2.20)$$

$$\begin{aligned} \delta^3 y_i = \delta(\delta^2 y_i) &= \delta(y_{i+1} - 2y_i + y_{i-1}) = \left(y_{i+\frac{3}{2}} - y_{i+\frac{1}{2}} \right) - 2 \left(y_{i+\frac{1}{2}} - y_{i-\frac{1}{2}} \right) + \left(y_{i-\frac{1}{2}} - y_{i-\frac{3}{2}} \right) = \\ &= y_{i+\frac{3}{2}} - 3y_{i+\frac{1}{2}} + 3y_{i-\frac{1}{2}} - y_{i-\frac{3}{2}} \end{aligned}$$

Barcha toq tartibli markaziy ayirmalar funksiyaning $x_{i+\frac{1}{2}}$ nuqtalardagi qiymatlari orqali, barcha juft tartibli markaziy ayirmalar esa funksiyaning x_i nuqtalaridagi qiymatlari orqali hisoblanadi. Bunday yozuvdan qutulish uchun o`rtalashgan markaziy ayirma tushunchasi kiritiladi.

O`rtalashtirish operatorini quyidagicha kiritamiz.

$$\mu y_i = \frac{1}{2} \left(y_{i+\frac{1}{2}} + y_{i-\frac{1}{2}} \right) \quad (2.21)$$

Buning yordamida birinchi tartibli o`rtalashgan ayirma quyidagicha yoziladi.

$$\mu \delta y_i = \frac{1}{2} (y_{i+1} - y_{i-1}) \quad (2.22)$$

O`rtalashgan uchinchi ayirma (2.21) va (2.22) ga asosan

$$\mu \delta^3 y_i = \frac{1}{2} (y_{i+2} - 2y_{i+1} + 2y_{i-1} - y_{i-2}) \quad (2.23)$$

Barcha toq o`rtalashgan ayirmalar ayirma yuqoridagi kabi topiladi.

μ va δ operatorlarni o`zaro bog`lash mumkin

$$\begin{aligned} \mu^2 y_i = \mu(\mu y_i) &= \frac{\mu}{2} \left(y_{i+\frac{1}{2}} + y_{i-\frac{1}{2}} \right) = \frac{1}{4} [(y_{i+1} + y_i) + (y_i + y_{i-1})] = \\ &= \frac{1}{4} [(y_{i+1} - 2y_i + y_{i-1}) + 4y_i] = \frac{1}{4} (\delta^2 + 4) y_i \end{aligned}$$

bundan

$$\mu^2 = \frac{\delta}{4} + 1 \quad (2.24)$$

Ikkinchi tomondan $y = f(x)$ funksiyani $x_{i+\frac{1}{2}}$ va $x_{i-\frac{1}{2}}$ nuqtalarda Teylor qatoriga yoyib ushbuni olamiz:

$$\begin{aligned} \delta y_i &= \left[e^{\frac{\lambda D}{2}} - e^{-\frac{\lambda D}{2}} \right] y_i = 2sh \frac{\lambda D}{2} y_i; \\ \mu y_i &= \frac{1}{2} \left[e^{\frac{\lambda D}{2}} + e^{-\frac{\lambda D}{2}} \right] y_i = ch \frac{\lambda D}{2} y_i; \\ \delta \mu y_i &= 2sh \frac{\lambda D}{2} ch \frac{\lambda D}{2} = sh \lambda D. \end{aligned} \quad (2.25)$$

birinchi tartibli hosila operatori o`rtallashgan markaziy ayirma orqali quyidagicha ifodalanadi

$$\lambda D = arsh(\mu \delta) \quad (2.26)$$

bunda ushbu yoyilmadan foydalanamiz

$$arsh x = x - \frac{x^3}{2 \cdot 3} + \frac{1 \cdot 3x^3}{2 \cdot 4 \cdot 5} - \frac{1 \cdot 3 \cdot 5x^3}{2 \cdot 4 \cdot 6 \cdot 7} - \dots + (-1)^n \frac{(2n-1)!!}{(2n)!!(2n+1)} + \dots,$$

$$\lambda D = \mu \delta - \frac{1}{6} (\mu \delta)^3 + \frac{3}{40} (\mu \delta)^5 - \frac{5}{112} (\mu \delta)^7 + \dots$$

(2.25) tenglikni hisobga olsak bu ifodani ko`rinishi quyidagicha bo`ladi

$$\lambda D = \mu \delta \left(1 - \frac{1}{6} \left(1 + \frac{\delta^2}{4} \right) \delta^2 + \frac{3}{40} \left(1 + \frac{\delta^2}{4} \right)^2 \delta^4 - \frac{5}{112} \left(1 + \frac{\delta^2}{4} \right)^3 \delta^6 + \dots \right)$$

Bu ifodani δ ni darajasini o`sib borish tartibida yozamiz

$$\lambda D = \mu \delta \left(1 - \frac{\delta^2}{6} + \frac{\delta^4}{30} - \frac{\delta^6}{140} - \frac{129\delta^8}{4480} + \dots \right) \quad (2.27)$$

Oxirgi yoyilmadan foydalanib ixtiyoriy tartibli markaziy ayirmani topish mumkin. (2.27) dan ko`rinadiki yoyilmaning bitta hadining qo`shilishi appraksimatsiya aniqligini λ^2 ga oshiradi. Bundan tashqari markaziy ayirmali hosilalar bir tomonli hosilalarga nisbatan aniqlik darajasi katta .

Yuqori tartibli hosilalarni (2.27) dan uning o'ng va chap tomonlarini n -darajaga ko'tarish yo'li bilan hosil qilamiz, bunda juft darajalarda (2.24) ni hisobga olamiz.

$$(\lambda D)^n = (\mu \delta)^n \left(1 - \frac{\delta^2}{6} + \frac{\delta^4}{30} - \frac{\delta^6}{140} + \frac{129\delta^8}{4480} - \dots \right)^n \quad (2.28)$$

Oxirgi formulada $n = 2, 3, 4$ bo'lganda

$$(\lambda D)^2 = \delta^2 \left(1 - \frac{\delta^2}{12} + \frac{\delta^4}{90} - \frac{\delta^6}{560} + \dots \right);$$

$$(\lambda D)^3 = \mu \delta^3 \left(1 - \frac{\delta^2}{4} - \frac{\delta^4}{120} + \dots \right)$$

$$(\lambda D)^4 = \delta^4 \left(1 - \frac{\delta^2}{8} + \frac{376\delta^4}{720} + \dots \right)$$

Keltirib chiqarilgan (2.28) formuladan ixtiyoriy tartibli markaziy ayirmali hosilani aniqlashimiz mumkin.

